



O'zbek tilidagi lingvokulturemalar: ilmiy-nazariy va tarjimaviy tahlil

Madaliyeva Ozoda

Aniq va ijtimoiy fanlar university 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi lingvokulturemalar ilmiy-nazariy va tarjimaviy jihatdan tahlil qilinadi. Lingvokulturema tushunchasining mazmuni, uning til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalashdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, lingvokulturemalarning semantik, pragmatik va diskursiv xususiyatlari ko'rib chiqilib, ularning milliy mentalitetni ifodalashdagi roli ochib beriladi. Maqolada 'or', 'nomus', 'uyat' kabi lingvokulturemalar misolida madaniy mazmun tahlil qilinadi.

ABSTRACT

This article provides a scientific and theoretical as well as translational analysis of linguocultural units in the Uzbek language. It explores the concept of linguocultureme and its role in expressing the relationship between language and culture. The semantic, pragmatic, and discursive features are examined, highlighting their function in representing national mentality.

Kalit so'zlar: lingvokulturema, lingvokulturologiya, semantika, tarjima, madaniyat, milliy mentalitet, pragmatika, diskurs.

Keywords: linguocultureme, linguoculturology, semantics, translation, culture, national mentality, pragmatics, discourse.

Lingvokulturemalar muammosi zamonaviy lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik va semantika fanlarining kesishgan nuqtasida shakllangan murakkab ilmiy yo'nalishlardan biridir. Ushbu tushuncha til birliklarida mujassam madaniy axborotni aniqlash, tavsiflash va interpretatsiya qilishga qaratilgan bo'lib, tilning antropotsentrik mohiyatini ochishda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi. Til birliklarining madaniy yuklamasini o'rganish til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Lingvokulturologik paradigma tilni madaniyatdan ajralgan tizim sifatida emas, balki kollektiv ong, tarixiy tajriba va ijtimoiy qadriyatlar bilan integratsiyalashgan fenomen sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuv doirasida til birliklari madaniy bilim



tashuvchisi sifatida qaraladi, lingvokulturemalar esa aynan shu jarayonning eng yorqin ko‘rinishi hisoblanadi. Natijada lingvokulturemalar milliy madaniyatning lingvistik modeli sifatida ilmiy tahlil qilinadi.

V.A. Maslova lingvokulturemalarni madaniyatning tildagi obyektivlashgan shakli sifatida tavsiflab, ularning semantik strukturasi ko‘p qatlamli ekanligini ta’kidlaydi. Olim lingvokulturema tarkibida denotativ ma’no bilan bir qatorda aksiologik va emotsional komponentlar mavjudligini ko‘rsatadi. Ushbu qarash lingvokulturemalarni oddiy nominativ birliklardan farqlashda muhim metodologik mezon bo‘lib xizmat qiladi.

V.V. Vorobyov lingvokulturemani madaniy-konseptual birlik sifatida izohlab, uning tarkibida lingvistik, kognitiv va madaniy qatlamlar o‘zaro integratsiyalashgan holda mavjud bo‘lishini ilmiy asoslaydi. Lingvokulturemalar shu tariqa milliy ongning til orqali reprezentatsiyasi sifatida talqin qilinadi. Mazkur yondashuv lingvokulturemalarni konseptual tahlil qilish zarurligini asoslaydi.

‘Or’ lingvokulturemasi o‘zbek madaniyatida shaxsiy sha’n, obro‘ va axloqiy mas’uliyat bilan bog‘liq murakkab konseptual maydonni tashkil etadi. Ushbu birlik ijtimoiy munosabatlar tizimida normativ-baholovchi funktsiya bajaradi. Mazkur tushunchaning boshqa tillarga tarjimai madaniy moslik muammosini yuzaga keltiradi.

‘Nomus’ lingvokulturemasi ham milliy mentalitetning muhim markerlaridan biri hisoblanadi. Ushbu birlik ijtimoiy maqbullik, axloqiy me’yor va kollektiv baholash kategoriyalari bilan uzviy aloqada ishlatiladi. Lingvokulturema sifatida ‘nomus’ tushunchasi keng pragmatik salohiyatga ega.

‘Uyat’ lingvokulturemasi pragmatik jihatdan ijtimoiy-regulyativ mexanizm sifatida faoliyat yuritadi. Nutqiy jarayonda ushbu birlik orqali baholash, tanbeh yoki ijtimoiy me’yorni eslatish funksiyalari ifodalanadi. Ingliz tilida ushbu birlikning to‘liq ekvivalenti mavjud emasligi tarjimada semantik va pragmatik qiyinchiliklarni yuzaga chiqaradi.

Lingvokulturemalar diskursiv jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular kommunikativ jarayonda ijtimoiy rollar, madaniy stereotiplar va baholash mexanizmlarini faollashtiradi. Shu bois lingvokulturemalar pragmalingvistika va diskurs tahlili doirasida ham o‘rganiladi.

Badiiy adabiyot lingvokulturemalarni o‘rganish uchun muhim empirik manba hisoblanadi. Adabiy matnlar milliy madaniyat, qadriyatlar tizimi va mental modellarni



Learning and Sustainable Innovation

estetik shaklda ifodalaydi. O‘zbek adabiyotida lingvokulturemalar obraz yaratish va madaniy muhitni tasvirlashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan sabr, vafo, adolat kabi tushunchalar lingvokulturema sifatida Sharq madaniyatining aksiologik tizimini ifodalaydi. Ushbu birliklar poetik diskursda axloqiy ideal va madaniy me‘yorlar bilan bog‘liq holda qo‘llanadi.

Abdulla Qodiriy romanlarida esa lingvokulturemalar ijtimoiy reallik, milliy urf-odatlar va madaniy stereotiplarni ifodalash vositasi sifatida ishlatiladi. Ushbu birliklar badiiy matnda madaniy koloritni shakllantiradi.

Ingliz tilida ham madaniyatga xos lingvokulturemalar mavjud. Shakespeare asarlarida ‘honour’, ‘fate’, ‘mercy’ kabi birliklar ingliz madaniyatining axloqiy va falsafiy konseptlarini ifodalaydi. Ushbu tushunchalarning tarjimasini madaniyatlararo interpretatsiya muammolarini yuzaga chiqaradi.